

SHERWOOD ANDERSONNING 'HANDS' VA 'PAPER PILLS' NOVELLALARIDA PSIXOLOGIK POETIKA

Boltayeva Dilfuzaxon Shuxrat qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Email: d.boltayeva@uzswlu.uz

ORCID: 0009-0000-9375-6699

Abstract. Ushbu maqola amerikalik yozuvchi Sherwood Anderson ning Winesburg, Ohio to'plamiga kiruvchi "Hands" va "Paper Pills" novellalarida psixologik poetikaning badiiy ifodalanishini tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Anderson nasrida inson ruhiyati, yolg'izlik, ichki ziddiyat va jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlar qanday poetik vositalar orqali ochib berilganini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy metod, matnshunoslik va psixologik interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Anderson novellalarida psixologik holat tashqi voqealar orqali emas, balki ramziy obrazlar, tana harakatlari, ichki monolog va sukunat poetikasi orqali ifodalanadi. "Hands" novellasida qo'llar ramziy va psixologik markaziy obraz sifatida insonning ichki iztiroblari hamda jamiyat tomonidan noto'g'ri talqin qilingan mehrini ifodalaydi. "Paper Pills" novellasida esa qog'oz bo'laklari inson tafakkuri va ichki dunyosining metaforik ifodasiga aylanadi. Maqola Andersonning psixologik novellalar poetikasiga qo'shgan hissasini ochib beradi va uning nasrida inson ongining murakkab qatlamlari qanday badiiy vositalar orqali tasvirlanganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: psixologik poetika; amerika modernizmi; ramziylik; grotesk obraz; ichki monolog; Sherwood Anderson; Winesburg, Ohio; psixologik novella

Аннотация. В данной статье анализируется художественное выражение психологической поэтики в новеллах «Hands» и «Paper Pills», входящих в сборник Winesburg, Ohio американского писателя Шервуда Андерсона. Основной целью исследования является выявление поэтических средств, с помощью которых в прозе Андерсона раскрываются сложность человеческой психологии, одиночество, внутренний конфликт и взаимоотношения личности и общества. В ходе исследования применялись сравнительно-аналитический метод, текстологический анализ и метод психологической интерпретации. Результаты показывают, что психологическое состояние героев в новеллах Андерсона выражается не через внешние события, а посредством символических образов, телесных жестов, внутреннего монолога и поэтики молчания. В новелле «Hands» образ рук выступает центральным символическим и психологическим элементом, отражающим внутренние страдания героя и его неправильно понятое чувство привязанности. В новелле «Paper Pills» скомканные листки бумаги становятся метафорическим выражением человеческого мышления и сложности внутреннего мира. Исследование подчеркивает вклад Андерсона в развитие поэтики психологической новеллы и показывает, каким образом его повествовательные приемы раскрывают сложные уровни человеческого сознания.

Ключевые слова: психологическая поэтика; американский модернизм; символизм; гротескный образ; внутренний монолог; Шервуд Андерсон; Winesburg, Ohio; психологическая новелла.

Abstract. This article analyzes the artistic expression of psychological poetics in the short stories "Hands" and "Paper Pills" from the collection Winesburg, Ohio by the American writer Sherwood Anderson. The main aim of the study is to identify the poetic devices through

which Anderson's prose reveals the complexity of human psychology, loneliness, inner conflict, and the relationship between the individual and society. The research employs comparative analysis, textual analysis, and psychological interpretation methods. The results show that psychological states in Anderson's short stories are expressed not through external events but through symbolic images, bodily gestures, inner monologue, and the poetics of silence. In the short story "Hands," the image of hands functions as a central symbolic and psychological element representing the protagonist's inner suffering and his misunderstood affection. In "Paper Pills," the crumpled pieces of paper become a metaphorical representation of human thought and the complexity of the inner world. The study highlights Anderson's contribution to the poetics of psychological short fiction and demonstrates how his narrative techniques reveal the complex layers of human consciousness.

Keywords: psychological poetics; American modernism; symbolism; grotesque character; inner monologue; Sherwood Anderson; Winesburg, Ohio; psychological short story.

Kirish. XX asr boshlarida Amerika adabiyotida inson ruhiyati va ichki tajribalarini tasvirlashga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi (Bradbury, 1992; Hoffman, 1955). Modernizm davrida adabiyot inson ongining murakkab tuzilishini va ichki tajribalarni tasvirlash uchun yangi badiiy shakllarni izlay boshladi (Bradbury, 1992; Childs, 2000). Bu jarayonda psixologik realizm va psixologik poetika muhim estetik yo'nalish sifatida shakllandi. Mazkur yo'nalish vakillaridan biri bo'lgan Sherwood Anderson o'zining qisqa hikoyalari orqali insonning ichki dunyosini, uning yashirin qo'rquvlarini, orzularini va ruhiy izolyatsiyasini chuqur tasvirlagan yozuvchilardan biridir.

Andersonning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan Winesburg, Ohio kichik shaharcha hayoti haqida hikoya qiluvchi novellalar to'plamidir. Ushbu asarda muallif turli qahramonlar hayoti orqali insonning ichki yolg'izligi, tushunilmasligi va ruhiy iztiroblarini ko'rsatadi. Anderson yaratgan qahramonlar ko'pincha jamiyat tomonidan noto'g'ri tushunilgan yoki o'z ichki dunyosiga qamalib qolgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Adabiyotshunoslar bu obrazlarni ko'pincha "grotesque characters" tushunchasi bilan izohlashadi.

To'plamdagi "Hands" va "Paper Pills" novellalari Anderson nasrining psixologik xususiyatlarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. "Hands" novellasida Wing Biddlebaum obrazining ruhiy holati uning qo'llari orqali ramziy tarzda ifodalanadi. Qo'llar bu hikoyada nafaqat jismoniy harakat vositasi, balki qahramonning ichki kechinmalari, qo'rquvlari va mehr tuyg'ularining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. "Paper Pills" novellasida esa Doctor Reefy obrazining ichki tafakkuri qog'oz bo'laklari metaforasi orqali tasvirlanadi. U yozgan fikrlarini qog'ozga tushirib, keyin ularni g'ijimlab cho'ntagiga solib yuradi. Bu holat inson tafakkurining murakkabligi va uning ichki dunyosining yashirin tabiatini ifodalaydi.

Tadqiqot davomida qiyosiy va matnshunoslik tahlil metodlari qo'llanilib, Anderson novellalarida psixologik tasvir usullari o'rganiladi. Natijada muallif nasrida inson ruhiyati tashqi voqealar orqali emas, balki ichki monolog, ramziylik va tana harakatlari orqali ochib berilishi aniqlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Amerika modernistik adabiyotida inson ruhiyatini tasvirlash masalasi XX asr boshlarida adabiyotshunoslikda keng muhokama qilingan. Bu davr yozuvchilari inson ongining murakkab qatlamlarini ochib berishga intilib, yangi badiiy usullarni qo'llay boshladilar (Bradbury, 1992; Childs, 2000). Psixologik tasvirning rivojlanishida Sherwood Anderson ning asarlari alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar Anderson ijodini ko'pincha Amerika modernizmining muhim bosqichi sifatida baholaydilar (Howe, 1951; Rideout, 2006). Andersonning eng mashhur asari

hisoblangan Winesburg, Ohio kichik shaharcha hayoti orqali insonning ichki yolg'izligi va ruhiy izolyatsiyasini tasvirlaydi (Kennedy, 1995). Bu to'plamdagi hikoyalar o'zaro bog'langan bo'lib, ularning markazida insonning ichki dunyosini anglash masalasi turadi.

Adabiyotshunos Irving Howe Anderson nasrini tahlil qilib, uning asarlarida inson ruhiyatining murakkabligi va jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi ziddiyat asosiy mavzulardan biri ekanini ta'kidlaydi (Howe, 1951). Howe fikricha, Anderson yaratgan qahramonlar jamiyat tomonidan tushunilmagan shaxslar bo'lib, ularning ichki dunyosi tashqi hayotdan ko'ra ancha boydir.

Walter B. Rideout esa Anderson asarlaridagi "grotesque characters" fenomeniga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, Anderson qahramonlari biror g'oya yoki haqiqatga haddan tashqari berilib ketgan shaxslar bo'lib, bu holat ularning shaxsiyatini bir tomonlama shakllantiradi (Rideout, 2006). Natijada ular jamiyat uchun g'alati yoki tushunarsiz bo'lib ko'rinadi.

Boshqa tadqiqotchilar Anderson nasrida ramziylik va psixologik metaforalar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Masalan, David D. Anderson ning fikricha, Anderson novellalarida oddiy predmetlar ko'pincha chuqur psixologik ma'noga ega bo'ladi (Anderson, 1992). "Hands" novellasidagi qo'llar va "Paper Pills" novellasidagi qog'oz bo'laklari ana shunday ramziy obrazlar hisoblanadi.

Shuningdek, Anderson asarlarida ichki monolog va sukunat poetikasi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonlar ko'pincha o'z fikrlarini ochiq ifoda etmaydilar, ammo ularning harakatlari va ramziy detallar ularning ichki holatini ochib beradi (Cohn, 1978).

Zamonaviy tadqiqotlar Anderson nasrining psixologik va ekzistensial jihatlarini ham o'rganmoqda. Ba'zi tadqiqotchilar Anderson qahramonlarini ekzistensial yolg'izlikni boshdan kechirayotgan shaxslar sifatida talqin qiladilar (Kennedy, 1995).

Shu tariqa mavjud ilmiy tadqiqotlar Anderson ijodining turli jihatlarini o'rganib chiqqan bo'lsa-da, "Hands" va "Paper Pills" novellalarini psixologik poetika nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu maqola aynan shu masalani o'rganishga qaratilgan bo'lib, Anderson novellalarida psixologik tasvirning badiiy mexanizmlarini aniqlashni maqsad qiladi.

Mazkur maqolada Sherwood Andersonning "Hands" va "Paper Pills" novellalarida psixologik poetikaning badiiy ifodasi qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy tahlil metodi yordamida ikki novella o'rtasidagi umumiy poetik xususiyatlar aniqlab olindi. Shuningdek, matnshunoslik (textual analysis) metodi orqali badiiy matndagi ramziy obrazlar, metaforalar va psixologik detallar tahlil qilindi. Bundan tashqari, psixologik interpretatsiya usuli yordamida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari va yolg'izlik motivlari talqin qilindi. Ushbu metodlar Anderson novellalarida psixologik poetikaning qanday badiiy vositalar orqali ifodalanganini aniqlash imkonini berdi.

Psixologik Novella poetikasi nazariy asoslari. Psixologik novella poetika tushunchasi adabiyotda inson ruhiyati va ong jarayonlarini badiiy vositalar orqali ifodalashga qaratilgan estetik yondashuv sifatida talqin qilinadi (Cohn, 1978; Childs, 2000). XX asr boshlarida modernizm davrida adabiyotda inson ongining murakkab qatlamlarini tasvirlashga bo'lgan qiziqish keskin ortdi (Bradbury, 1992). Bu davr yozuvchilari tashqi voqealardan ko'ra insonning ichki dunyosini, uning psixologik tajribalarini va ruhiy izolyatsiyasini tasvirlashga intildilar.

Amerika modernizmida bu tendensiya ayniqsa qisqa hikoya janrida yaqqol namoyon bo'ldi (Kennedy, 1995). Qisqa hikoya inson ruhiyati va ichki konfliktlarini qisqa, ammo intensiv badiiy shaklda tasvirlash imkonini beradi. Bu jarayonda yozuvchilar ko'pincha ramziy obrazlar, ichki monolog, tana harakatlari va sukunat poetikasidan foydalanadilar.

Bu jarayonning muhim vakillaridan biri bo'lgan Sherwood Anderson o'z asarlarida insonning ichki yolg'izligini, jamiyat tomonidan tushunilmasligini va ruhiy izolyatsiyasini chuqur tasvirlagan. Uning Winesburg, Ohio to'plami kichik shaharcha hayotini tasvirlasa-da, aslida inson ongining murakkab tabiatini o'rganishga bag'ishlangan.

Adabiyotshunoslar Anderson asarlaridagi qahramonlarni ko'pincha "grotesque" tushunchasi bilan izohlashadi. Grotesque obrazlar jamiyatdan ajralib qolgan, ichki dunyosi boy, ammo bu boylikni ifoda qila olmaydigan shaxslarni anglatadi (Anderson, 1919; Rideout, 2006). Anderson fikricha, har bir inson o'z hayotida biror "haqiqat"ga yopishib oladi va shu haqiqat uning shaxsiyatini bir tomonlama shakllantiradi. Natijada insonning murakkab tabiati soddalashtirilib, u jamiyat uchun g'alati yoki tushunarsiz bo'lib ko'rinadi.

Psixologik poetika Anderson novellalarida bir nechta asosiy elementlar orqali namoyon bo'ladi:

- *ramziy obrazlar*
- *tana harakatlari orqali psixologik ifoda*
- *ichki monolog va xotira oqimi*
- *sukunat va yolg'izlik poetikasi*

Bu elementlar ayniqsa "Hands" va "Paper Pills" novellalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

'Hands' novellasida psixologik poetika. "Hands" novellasi Andersonning psixologik tasvir uslubini eng aniq ko'rsatadigan hikoyalardan biridir. Asarning markaziy qahramoni Wing Biddlebaum jamiyat tomonidan noto'g'ri tushunilgan va o'tmishidagi fojea tufayli yolg'izlikda yashayotgan inson sifatida tasvirlanadi.

Hikoyaning asosiy poetik markazi qahramonning qo'llari hisoblanadi. Qo'llar bu yerda nafaqat jismoniy harakat vositasi, balki qahramonning ichki ruhiy holatini ifodalovchi ramziy obrazga aylanadi. Wing Biddlebaumning qo'llari doimo harakatda bo'ladi, ular go'yo qahramonning ichki energiyasi va ruhiy iztiroblarini ifodalaydi.

Muallif qo'llarni tasvirlashda ko'pincha metafora va taqqoslashlardan foydalanadi. Masalan, qahramonning qo'llari qafasga qamalgan qush qanotlariga o'xshatiladi. Bu tasvir Wing Biddlebaumning ichki erkinlik istagini va shu bilan birga uning ruhiy qamalini ifodalaydi.

Wing Biddlebaumning o'tmishi ham uning psixologik holatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. U ilgari maktab o'qituvchisi bo'lgan va o'z shogirdlariga mehr bilan munosabatda bo'lgan. Biroq jamiyat bu mehrni noto'g'ri talqin qilib, unga qarshi ayblovlar qo'ygan. Natijada u shahardan quvilib, yangi ism bilan boshqa joyda yashashga majbur bo'lgan.

Bu voqea qahramonning psixologik travmasini shakllantiradi. U qo'llarini yashirishga harakat qiladi, chunki ular uning o'tmishini eslatadi. Shu bilan birga qo'llar uning ichki his-tuyg'ularini ifodalashning yagona vositasi bo'lib qoladi.

Hikoyada Wing Biddlebaum faqat George Willard bilan suhbatlashganda o'zini erkin his qiladi. George Willard bu yerda qahramonning ichki dunyosini tushunishga qodir yagona inson sifatida tasvirlanadi. Wing Biddlebaum o'z fikrlarini unga aytib berayotganda qo'llari yana erkin harakat qila boshlaydi.

Bu holat Anderson poetikasida muhim psixologik momentni ko'rsatadi. Qahramon o'zini tushunadigan inson bilan muloqot qilganda uning ichki energiyasi va ijodiy kuchi yana namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga hikoyaning oxirida Wing Biddlebaum yana yolg'izlikka qaytadi. George Willard ketgach, uning ichki ehtiyoji yana qondirilmay qoladi. Bu holat insonning ruhiy izolyatsiyasi va jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi.

'Paper Pills' novellasida psixologik poetika. "Paper Pills" novellasi ham Andersonning psixologik poetikasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Hikoyaning markaziy qahramoni Doctor Reefy kichik shaharchada yashovchi, ichki dunyosi boy, ammo jamiyat tomonidan tushunilmagan inson sifatida tasvirlanadi.

Doctor Reefyning asosiy xususiyatlaridan biri — uning qog'ozga yozilgan fikrlarni g'ijimlab cho'ntagiga solib yurish odatidir. Bu qog'oz bo'laklari hikoyaning markaziy ramziy obraziga aylanadi.

Muallif bu qog'ozlarni "paper pills" deb ataydi. Bu metafora inson tafakkuri va g'oyalarining murakkab tabiatini ifodalaydi. Doctor Reefy o'z fikrlarini yozib qo'yadi, ammo keyinchalik ularni g'ijimlab cho'ntagiga soladi. Bu jarayon inson fikrlarining shakllanishi va yo'qolishini ramziy tarzda ko'rsatadi.

Doctor Reefy obrazining yana bir muhim jihati uning jamiyat bilan munosabatidir. U shaharchada yashasa-da, aslida jamiyatdan ajralgan holda yashaydi. Uning ichki dunyosi juda boy, ammo bu dunyoni tushunadigan odamlar juda kam.

Hikoyada Doctor Reefy faqat bir ayol bilan chuqur ruhiy aloqa o'rnatadi. Bu ayol ham jamiyat tomonidan tushunilmagan inson sifatida tasvirlanadi. Ularning qisqa munosabati Anderson nasrida insoniy yaqinlikning noyob va qisqa lahzalarini ifodalaydi.

Ayol vafot etgach, Doctor Reefy yana yolg'izlikka qaytadi. Bu holat Anderson novellalarida tez-tez uchraydigan motiv insonning ichki yolg'izligi motivini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Paper Pills" novellasi shuni ko'rsatadiki, insonning ichki dunyosi ko'pincha tashqi hayotdan ko'ra murakkabroq va boyroq bo'ladi. Biroq jamiyat ko'pincha bu murakkablikni tushunishga qodir emas.

Qiyosiy tahlil: 'Hands' va 'Paper Pills' novellalarida ramziylik va psixologik ifoda.

Sherwood Anderson ning Winesburg, Ohio to'plamidagi "Hands" va "Paper Pills" novellalari inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beruvchi muhim psixologik matnlar hisoblanadi (Howe, 1951). Ushbu ikki hikoya o'rtasida bir qator umumiy poetik xususiyatlar mavjud bo'lib, ular Anderson nasrining psixologik tabiatini tushunishga yordam beradi.

Avvalo, har ikki novellada ham qahramonlar jamiyatdan ma'lum darajada ajralib qolgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Wing Biddlebaum ham, Doctor Reefy ham kichik shaharcha hayotida yashaydilar, ammo ular jamiyat bilan to'liq uyg'unlashib keta olmaydilar. Ularning ichki dunyosi tashqi hayotdan ancha boy va murakkab bo'lsa-da, bu boylilikni tushunadigan insonlar juda kam.

Bu holat Anderson nasrida tez-tez uchraydigan "grotesque character" fenomeni bilan bog'liq. Grotesque obrazlar jamiyat tomonidan g'alati yoki tushunarsiz deb qabul qilinadigan, ammo aslida ichki dunyosi chuqur bo'lgan shaxslardir (Rideout, 2006). Wing Biddlebaum va Doctor Reefy ana shunday obrazlarning yorqin namunasi.

Ikkinchi muhim umumiy jihati ramziy obrazlardan foydalanishdir. Anderson qahramonlarning ichki holatini to'g'ridan-to'g'ri tasvirlamaydi. Buning o'rniga u ramziy detallar orqali qahramonlarning psixologik holatini ochib beradi (Anderson, 1992).

“Hands” novellasida asosiy ramziy obraz qo‘llardir. Wing Biddlebaumning qo‘llari uning ichki energiyasi, mehr tuyg‘usi va shu bilan birga uning qo‘rquvini ifodalaydi. Qo‘llar doimo harakatda bo‘ladi, go‘yo qahramonning ichki dunyosi tashqi harakat orqali namoyon bo‘layotgandek. Shu bilan birga qahramon qo‘llarini yashirishga harakat qiladi, chunki ular uning o‘tmishidagi fojeani eslatadi.

“Paper Pills” novellasida esa qog‘oz bo‘laklari asosiy ramziy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Doctor Reefy o‘z fikrlarini qog‘ozga yozib, keyin ularni g‘ijimlab cho‘ntagiga soladi. Bu qog‘ozlar inson tafakkurining murakkabligini va g‘oyalarning tez-tez yo‘qolib ketishini ifodalaydi. Bu metafora inson ongining nozik va murakkab tabiatini ko‘rsatadi.

Uchinchi muhim jihat insoniy yaqinlikning qisqa lahzalari motividir. Har ikkala hikoyada ham qahramonlar o‘zlarini tushunadigan inson bilan qisqa muddatli ruhiy aloqa o‘rnatadilar.

“Hands” novellasida Wing Biddlebaum George Willard bilan suhbatlashganda o‘zini erkin his qiladi. George Willard qahramonning ichki dunyosini tushunishga qodir yagona inson sifatida tasvirlanadi. Biroq bu yaqinlik uzoq davom etmaydi va hikoya yana qahramonning yolg‘izligi bilan yakunlanadi.

“Paper Pills” novellasida Doctor Reefy ham bir ayol bilan qisqa, ammo chuqur ruhiy aloqa o‘rnatadi. Bu ayol ham jamiyat tomonidan tushunilmagan inson sifatida tasvirlanadi. Ularning munosabati insoniy yaqinlikning nozik va qisqa lahzalarini ko‘rsatadi. Ayolning vafoti esa qahramonning yana yolg‘izlikka qaytishiga olib keladi.

Shuningdek, har ikki hikoyada Anderson psixologik tasvirni kuchaytirish uchun sukunat poetikasidan foydalanadi. Qahramonlarning ichki dunyosi ko‘pincha sukut orqali ifodalanadi. Ular ko‘p gapirmaydilar, ammo ularning harakatlari va ramziy detallar ularning ruhiy holatini ochib beradi.

Masalan, “Hands” novellasining oxirida Wing Biddlebaum non maydalari terib yeyayotgan sahna tasvirlanadi. Bu sahna qahramonning yolg‘izligi va ruhiy izolyatsiyasini kuchli badiiy obraz orqali ko‘rsatadi. Muallif bu holatni ibodat qilayotgan odamga o‘xshatib tasvirlaydi, bu esa qahramonning ichki iztirobini yanada chuqurroq ko‘rsatadi.

“Paper Pills” novellasida esa Doctor Reefy qog‘ozlarni g‘ijimlab cho‘ntagiga solib yurishi orqali o‘zining ichki dunyosini yashiradi. Bu oddiy harakat aslida qahramonning murakkab tafakkuri va uning jamiyat bilan bo‘lgan masofasini ifodalaydi.

Shu tariqa Anderson novellalarida psixologik poetika tashqi voqealar orqali emas, balki kichik detallar va ramziy obrazlar orqali ochib beriladi. Bu uslub Anderson nasrini o‘z davrining boshqa yozuvchilaridan ajratib turadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari Sherwood Anderson novellalarida psixologik poetika muhim badiiy tamoyil sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Anderson nasrida qahramonlarning ichki ruhiy holati tashqi voqealar orqali emas, balki ramziy obrazlar, badiiy detallar va ichki monologlar orqali ifodalanadi.

“Hands” novellasida Wing Biddlebaum obrazining ruhiy holati uning qo‘llari orqali ramziy tarzda tasvirlangan. Qo‘llar qahramonning ichki energiyasi, mehr tuyg‘usi va shu bilan birga uning ruhiy travmasining ifodasiga aylanadi. Qahramonning qo‘llarini yashirishga urinishi uning jamiyat tomonidan noto‘g‘ri tushunilgan o‘tmishi bilan bog‘liq psixologik iztiroblarini ko‘rsatadi.

“Paper Pills” novellasida esa Doctor Reefy obrazining ichki tafakkuri qog‘oz bo‘laklari orqali ramziy tarzda ifodalanadi. Qahramon yozgan fikrlarini qog‘ozga tushirib, keyin ularni g‘ijimlab cho‘ntagiga solib yuradi. Bu jarayon inson tafakkurining murakkabligi va g‘oyalarning vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib ketishini ifodalaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, har ikki novellada ham Anderson qahramonlarni jamiyatdan ajralgan grotesk obrazlar sifatida tasvirlaydi. Ularning ichki dunyosi boy va murakkab bo'lsa-da, jamiyat ularni to'liq tushunmaydi. Bundan tashqari, Anderson novellalarida sukunat poetikasi ham muhim rol o'ynaydi. Qahramonlar ko'pincha o'z fikrlarini ochiq ifoda etmaydilar, ammo ularning harakatlari va ramziy detallar ularning ichki ruhiy holatini ochib beradi.

Shu tariqa tadqiqot natijalari Sherwood Anderson novellalarida psixologik poetika ramziy obrazlar, badiiy detallar, ichki monolog va sukunat poetikasi orqali namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

Conclusion

Ushbu tadqiqot Sherwood Anderson ning Winesburg, Ohio to'plamidagi "Hands" va "Paper Pills" novellalarida psixologik poetikaning asosiy xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari Anderson nasrida inson ruhiyatini tasvirlash o'ziga xos poetik usullar orqali amalga oshirilishini ko'rsatdi.

Birinchi, Anderson novellalarida qahramonlarning ichki dunyosi tashqi voqealardan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Hikoyalarda dramatik voqealar deyarli yo'q, ammo qahramonlarning ruhiy tajribasi chuqur badiiy tasvir orqali ochib beriladi. Bu xususiyat Anderson nasrini psixologik realizm an'analari bilan bog'laydi.

Ikkinchi, Anderson psixologik holatni ifodalash uchun ramziy obrazlardan keng foydalanadi. "Hands" novellasida qo'llar qahramonning ichki energiyasi va ruhiy travmasini ifodalasa, "Paper Pills" novellasida qog'oz bo'laklari inson tafakkurining murakkabligini ifodalaydi. Bu ramzlar hikoyaning psixologik mazmunini chuqurlashtiradi.

Uchinchi, Anderson qahramonlari ko'pincha jamiyatdan ajralgan grotesk obrazlar sifatida tasvirlanadi. Ular jamiyat tomonidan tushunilmaydi, ammo ularning ichki dunyosi boy va murakkabdir. Bu obrazlar inson tabiatining murakkabligini ko'rsatadi.

To'rtinchi, Anderson novellalarida insoniy yaqinlikning qisqa lahzalari muhim poetik rol o'ynaydi. Qahramonlar ba'zan o'zlarini tushunadigan inson bilan qisqa muddatli ruhiy aloqa o'rnatadilar, ammo bu aloqa ko'pincha uzoq davom etmaydi. Natijada qahramonlar yana yolg'izlikka qaytadilar.

Umuman olganda, Anderson novellalari inson ruhiyatining nozik qatlamlarini tasvirlashda yangi badiiy imkoniyatlar yaratdi. Uning asarlarida psixologik tasvir ramziy detallar, tana harakatlari va sukunat poetikasi orqali amalga oshiriladi. Bu uslub keyingi amerika adabiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, "Hands" va "Paper Pills" novellalari Anderson nasrida psixologik poetikaning muhim namunalaridan biri bo'lib, ular insonning ichki dunyosini badiiy ifodalashning yangi usullarini namoyon etadi. Bu asarlar nafaqat amerika modernistik adabiyotining muhim qismi, balki psixologik hikoya janrining rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi.

References

1. Sherwood Anderson: A Study of the Short Fiction. Boston: Twayne Publishers Anderson, D. D., 1992.
2. Winesburg, Ohio. New York: B. W. Huebsch Anderson, S., 1919.
3. The Modern American Novel. Oxford: Oxford University Press Bradbury, M., 1992.
4. Modernism. London: Routledge Childs, P., 2000.
5. Transparent Minds: Narrative Modes for Presenting Consciousness in Fiction. Princeton: Princeton University Press Cohn, D., 1978.

6. *The Twenties: American Writing in the Postwar Decade*. New York: Viking Press Hoffman, F. J., 1955.
7. *Sherwood Anderson*. New York: William Sloane Associates Howe, I., 1951.
8. *Modern American Short Story Sequences: Composite Fictions and Fictive Communities*. Cambridge: Cambridge University Press Kennedy, J. G., 1995.
9. *Sherwood Anderson: A Writer in America*. Madison: University of Wisconsin Press Rideout, W. B., 2006.